



HIKMAT BILAN TO'QILGAN HAYOT LIBOSI (KAYKOVUSNING
“QOBUSNOMA” ASARI ASOSIDA)

Muborak O'rozova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi

Muborakorozova2005@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Kaykovus qalamiga mansub “Qobusnoma” asarining axloqiy-didaktik mazmuni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Asarda ilgari surilgan nasihatlar — komil inson tarbiyasiga oid qadimiy Sharq falsafasining amaliy ifodasi sanaladi. Muallifning o'g'liga yo'llagan pandlari orqali shaxsiy kamolot, ijtimoiy mas'uliyat, do'stlik va donolik kabi tushunchalar chuqur tahlil etiladi. Tadqiqot davomida “Qobusnoma”dagi hikmatlar nafaqat tarixiy manba, balki zamonaviy tarbiya tizimi uchun ham dolzarb o'gitlar xazinasini ekanligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: “Qobusnoma” asari, Kaykovus, didaktika, Sharq falsafasi, hikmatlar, axloqiy tarbiya.

Annotation: This article analyzes the ethical and didactic content of the work “Qobusnoma” by Kaykovus on a scientific basis. The advice put forward in the work is a practical expression of ancient Eastern philosophy regarding the upbringing of a perfect person. Through the author's advice to his son, concepts such as personal perfection, social responsibility, friendship, and wisdom are deeply analyzed. The research proves that the wisdom in “Qobusnoma” is not only a historical source, but also a treasure trove of relevant teachings for the modern educational system.

Keywords: The work “Nightmare”, Kaykovus, didactics, Eastern philosophy, proverbs, moral education.

Аннотация: В статье на научной основе анализируется нравственно-дидактическое содержание произведения «Гобуснама» Кайковуса. Представленные в работе советы являются практическим выражением древневосточной философии относительно воспитания совершенного человека. Советы автора своему сыну содержат глубокий анализ таких понятий, как личностная зрелость, социальная ответственность, дружба и мудрость. Исследование доказывает, что мудрость «Гобуснома» — это не только исторический источник, но и кладезь актуальных уроков для современной системы образования.

Ключевые слова: Произведение «Ночной кошмар», Кайковус, дидактика, восточная философия, пословицы, нравственное воспитание.

Sharq adabiy tafakkurida nasihatnoma janri alohida o'ringa ega bo'lib, bu yo'nalish asosida yuzaga kelgan asarlarda hayotiy tajriba, axloqiy-me'yoriy tamoyillar va komil inson tarbiyasiga oid qarashlar mujassam holda ifodalanadi. Bu jihatdan XI asrda Kaykovus ibn



Iskandar tomonidan fors tilida bitilgan “Qobusnoma” asari Sharq didaktik adabiyotining yetuk namunasi sanaladi. Didaktik adabiyot(yun.didaktikos - o‘rgatuvchi, ta’limiy)-muayyan ta’limiy, tarbiyaviy maqsadlarda yaratilgan adabiy asarlarning umumiy nomi.²³ Asarda muallifning o‘z o‘g‘liga yo‘nalgan nasihatlar orqali inson hayotidagi eng muhim jihatlar — odob-axloq, ilmga intilish, sabr-toqat, mehnat, do‘stlik, adolat va yaxshi xulq hamda muomalaga doir qarashlar yoritiladi. Asar o‘g‘liga atalgan bo‘lsa-da, unda keltirilgan dono fikrlar va hikoyalar barchaga birdek teng hisoblanadi. Eng quvonarlisi shuki, asar yaratilganiga 10 asrdan oshayotgan bo‘lsa-da, undagi g‘oya, asar qadr-qimmatini hali-hanuz ko‘tarilsa, ko‘tarildiki, mutlaqo tushgani yo‘q. Shuningdek, muallif hamisha har bir nasihatini boshlashda "ey farzand" degan jumlaning qo‘llaydi. Nido she'riy san'atining foydalanilishidan asosiy maqsad ham yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalilidir, ya'ni asar o‘tib-unib kelayotgan barcha avlodlar uchun dasturi amal bo‘lib, hammaga qaratilgan. Nido-boshqa she'riy san'atlardan bevosita inson qalbidagi his va hayajonlarni ochiq va kuchli tasvirlab bera olish imkoniyati bilan ajralib turadi. Insonning ichki tuyg‘ulari po‘rtana misoli junbushga kelganida lirik qahramon olamdagi har qanday narsa-hodisalarga, tabiatdagi istalgan narsaga, o‘zining qalbiga, suhbatdoshiga murojaat etishi mumkin.²⁴ Bu asarning yaratilish sababini muallif tilidan aytilgan ushbu fikrlardan anglash mumkin: "Bas, ey farzand, men o‘zimni o‘lumg‘a bag‘oyat yovuq topdim va shundoq maslahat ko‘rdimki, menga tiriklikdan judo bo‘lmoqlik yo‘qligi yetushmasidin burun har mushkul ishning tuzilishi va yaxshi ot qoldirmoq ko‘shishi bobida bir necha so‘z bayon qilg‘aymen, toki sen undan bahra olg‘aysan va men otalik mehri shartini bajo kelturg‘ayman".²⁵ "Qobusnoma" asaridagi jamiki yo‘l-yo‘riq ko‘rsatilgan ishlar, amallar, fikrlar Qur'oni Karim asosida yuzaga kelgan bo‘lib, asar Qur'oni Karimdagi ba'zi qilinishi kerak va kerak bo‘lmagan holatlarning badiiy ifodasidir. Asar 44 bobdan tashkil topib, birinchi bob ham aynan parvardigorni tanimoq zikrida hisoblanadi. Kaykovus o‘z hayoti davomida ko‘rgan, bilganlari, achchiq-chuchukni tatib ko‘rganlari asosida o‘z farzandi bahonasida bizga ham agar amal qilsak, butun umrimizga arzigulik pand qoldirgan desak, mubolag'a qilmaydi. Asarning qiymatiga yana qiymat qo‘shadigan narsa biror bir pand haqida gapirar ekan, isbot sifatida hikoyalar keltirib o‘tadi. O‘sha hikoyalarning ishonarli ekaniga dalil qahramonlari o‘tmishda o‘tgan, yashagan tarixiy shaxslar ekanligidadir. Hikoya-epik turing kichik shakli, odatda, qahramon hayotidan bitta(ba‘zan bir-biriga uzviy bog‘liq, qisqa muddat davomida kechgan bir necha) voqeani qalamga oladi.²⁶ Ularning hayotidan qilinishi kerak bo‘lgan ishni qilmagan holatda qiyin ahvolga tushib qolgan lavhalari hikoyatlarda o‘z ifodasini topgan.

Kaykovus 44 bobda hamma narsa haqida gapirib o‘tgan: eng avvalo, iymonni mustahkam qilgan holda, parvardigorni tanimoq, payg‘ambarning zikrida bo‘lmoq, shukr

²³ D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. "Akademnashr". 2013.

²⁴ 10-sinf adabiyoti. Darslik. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017. 181-b

²⁵ Kaykovus. "Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 15-b

²⁶ D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug‘ati. Toshkent. "Akademnashr". 2013.402 - b





qilmoqlik, yigitlik va qarilik sifati haqida, ovqatlanish tartibi va odobi haqida, sharob ichish, mehmon kutmoq va mehmon bo'lmoq, hammomga kirish, uxlamok, boylik orttirmok, omonat saqlamok, uy va yer sotib olmok, turmush qurmok, ilm egallamoklik va barcha kasbda o'zni qanday tutish tartibi, odobi va qonun-qoidolari haqida batafsil to'xtalib o'tgan. Masalan, o'ninchi bob nafsni tiyish va taomlanish odobida Kaykovus bizga shunday odatlarni aytganki, ularni qilish odobdan nishona berib turadi: "Ey farzand, agar taom bo'lsa, hamtovoqlaringni chaqirg'il, to sening birla taom yesunlar, ammo taomni tez yemag'il va ohista yeg'il. Taom yemak vaqtida odamlar bila so'zlashg'il, bu islom shartidir, lekin boshingni quyi solib o'tur, hamtovoqlaringning olg'on luqmasig'a qaramag'il", degan nasihatni aytib, quyidagi hikoyani o'quvchiga havola etadi: Eshitibmanki, bir vaqti Sohibi Ismoil binni Sohibi Abbos o'zining qarindoshlari va nadimlari bila taom yer edi. Bir kishi tabaqdin bir luqma ko'tardi. Uning luqmasida bir mo'y bor edi. Sohibi Ismoil uni ko'rib dedi: "Ey faloni, u mo'yni luqmadan olg'il". U kishi luqmani tashlab, majlisdan chiqib ketdi. Sohibi bir kishini buyurdi. Ul kishi chiqib ketg'on odamni qaytarib majlisga kelturdi. Sohibi dedi: "Ey faloni, nechun taom yeb bo'lmasdin bizning dasturxonimizdin chiqib ketding?" Ul kishi dedi: "Bir luqmada bir mo'yni ko'rg'on kishining taomin yemak meng'a loyiq emasdur". Sohibi bul so'zdin nihoyatda hijolatmand bo'ldi".²⁷ Bundan xulosa shuki, inson odobi bilan go'zal, deyilganidek, bu kishining ishi dastlab noto'g'ridek ko'rinadi, sababi u ovqat vaqti duo qilinmasdan turib ketadi. Lkn minnatli osh tatimas deyilganidek, uy egasi uning og'ziga qarab turibdi, nima yeb, nima ichyapti deb hisoblaganday. Bu insonning uy egasining bu ishini fahmlab turib ketishi uning farosatli ekanidan dalolatdir. Mana shunday har qanday vaziyatda ham o'zining obro'yini tushurmaslik bu yuksak salohiyat, donolik belgisi sanalib, muallif bizga bu orqali odobni kasb qilib olishimizga da'vat etmoqda.

Yigirma sakkizinchi bob do'st tutmoq zikrida deb nomlangan bo'lib, quyidagi maslahatlar o'quvchiga havola qilingan: hamma vaqt do'st tutmoqni odat qilg'il, zero ki har kishining do'sti ko'p bo'lsa, ayblari shuncha sir tutilur va fazilati ko'payur. Har vaqt yangi do'st topsang, ko'hna do'stlarni tark etmag'il va ulardan yuz o'g'irmag'il, toki hamisha do'sting ko'p bo'lsun, debdurlarki, yaxshi do'st kishiga ulug' ganjdir. Do'stlaringning do'stlarini ham do'st deb bil. Bu bobda esa do'st og'ir kunda yaraguvchi, vafot etganda esa izlaguvchi bo'lishi, shu sababli kishi hamisha do'stiga talpinishi haqida quyidagi kikoyatni keltirgan: Suqrot hakimni o'ldirish uchun olib borayotgan chog'da unga "Butparast bo'li!" deb ko'p aytdilar. Ul dedi: "Bundoq so'zni ayturdin til chekinglarkim, men hargiz ul ishni qilmasman!" Shunda shogirdlari yig'lab, zorlig' qilib so'rardilar: "Ey hakim, endi o'linga ko'ngil qo'ymishsan, aytg'il, seni qaysi yerga dafn etaylik?" Suqrot tabassum qilib dedi: "Qay joyni ko'nglungiz tilasa, ul joyga dafn qiling, ya'ni mening qayda bo'lsa, so'ngaklarim o'sha bo'lg'ay, faqat meni yod qilsangiz bas!"²⁸ Bundan xulosa shuki, kishi vafot etgandan

²⁷ Kaykovus. "Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 63-b

²⁸ Kaykovus. "Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 117-b





keyin uni yo‘qlab, uning haqiga duo qilib turadigan eng yaqin inson bu uning do‘sti bo‘ladi. Kishining 1000 ta do‘sti bo‘lsa ham, kam hisoblangani bois insonlar hamisha yomon kunida yelkadosh bo‘ladigan, yonida turadigan, manfaat uchun yurmaydigan haqiqiy do‘st topishga umri bo‘yi tirishib yashaydi.

Shu jumladan, asarda "har kishikim namozni tark aylasa, tarki din etg‘usidir va bedin kishining jazosi bu dunyoda qatl etmakdur va Xudoyi taoloning uqubatiga giriftor bo‘lg‘usidir ", "sen har nechaki dono bo‘lsang, o‘zingni xalqdin donoroq bilmag‘il, nedinkim o‘zingni nodon bilding-dono bo‘lding", "to‘rt narsa og‘ir falokatdir: birinchisi- yomon qo‘shni, ikkinchisi- katta oila, uchinchisi- jizzaki xotin, to‘rtinchisi- muhtojlik", "sendan talab qilishmasa, kishiga nasihat qilmag‘il, pand bermag‘il", "rozingni o‘zingdin o‘zga kishiga aytmag‘il, agar aytsang, so‘ngra uni rozi demag‘il" kabi hozirgi kunda dasturi amalga aylanishga ulgiran hikmatlardan ham namuna keltirgan. Aynan oxirgi aytilgan hikmat g‘oyasi yana Alisher Navoiy ijodida ham uchraydi, farqi bu nasriyda, Navoiy esa she‘riyda bitgan. XI asrda bu hikmat mag‘zi ilk bor Kaykovus ijodida uchrashi uning naqadar yetuk shaxs ekanligidan dalolatdir. Navoiy ijodidagi ushbu g‘oya asnosida yaratilgan ushbu qit‘ani sizga havola etaman:

Rozni asra, chunki fosh etding,
Yana pinhon bo‘lurni qilma havas.
Ko‘nglung ichra nafas kavidur roz,
Qaytmas, kimsadin chu chiqdi nafas.

Xulosa qilib shuni aytishim joizki, Sharq adabiyoti durdonalari orasida o‘ziga xos mavqega ega bo‘lgan “Qobusnoma” asari asrlar osha insoniyatni komillik sari yetaklab kelayotgan bebaho pand-nasihatlar majmuasidir. Bu asar nafaqat o‘z davrining axloqiy va ma‘naviy talablari asosida bitilgan, balki umuminsoniy qadriyatlar, doimiy dolzarblik kasb etuvchi g‘oyalar bilan boyitilgani bilan ajralib turadi. Unda muallif — Amir Kaykovus o‘g‘liga qilgan samimiy, ammo chuqur ma‘no kasb etuvchi pand-nasihatlar orqali inson hayotida e‘tibor berilishi zarur bo‘lgan muhim masalalarni ochib beradi: axloq, fazilat, ilmga chanqoqlik, mehnatga sadoqat, do‘stlikka vafodorlik, jamiyatga hurmat va ijtimoiy mas‘uliyat. Asarda bayon etilgan fikrlar o‘z davrining ijtimoiy-madaniy kontekstida yuksak pedagogik va didaktik ahamiyat kasb etgan bo‘lsa-da, ularning mazmun-mohiyati hozirgi davr uchun ham o‘ta dolzarbdir. Inson ruhiyati, fe‘l-atvori va hayotga munosabatini shakllantirishda “Qobusnoma”dagi hikmatli so‘zlar katta tarbiyaviy yukni o‘z zimmasiga oladi. Bu jihatdan asar zamonaviy yoshlar ma‘naviy dunyosini boyitishda, ularni komillik sari yetaklashda kuchli manba bo‘la oladi. Demak, mazkur asar faqat tarixiy-adabiy yodgorlik emas, balki bugungi kunda ham o‘z kuchini yo‘qotmagan, hayot saboqlari bilan to‘qilgan ibratlar sandig‘idir. “Qobusnoma”da bitilgan har bir satr — ma‘naviyatimizni mustahkamlovchi, ruhiyatimizni tozalovchi, hayotimizga nur olib kiruvchi hikmatlar xazinası sifatida baholanishi lozim. Shunday ekan, mazkur asarnı o‘rganish, targ‘ib qilish, uning ma‘naviy-falsafiy mohiyatini keng ommaga yetkazish bugungi yosh avlodni yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. “Qobusnoma”





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bugun ham, ertaga ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan hikmat bilan to'qilgan hayot libosidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 10-sinf adabiyoti. Darslik."O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017. 181-b
2. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr". 2013.
3. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent. "Akademnashr". 2013.402 – b
4. Kaykovus."Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 15-b
5. Kaykovus."Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 63-b
6. Kaykovus."Qobusnoma". Toshkent "Yoshlar matbuoti" 2024. 117-b